
FARG'ONA SHAHRILIK BITIRUVCHILARGA MEDALLAR TOPSHIRILDI.

Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasining faollar zalida shahar hokimining bitiruvchilar bilan uchrashuvi o'tkazildi. Unda shahar hokimligi hamda xalq ta'limi bo'limi mutasaddi xodimlari, ustoz-murabbiylar, yoshlarning ota-onalari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Uchrashuv avvalida shahar hokimi Vosiljon Nazarov so'zga chiqib, bitiruvchilarni tabrikladi va ularning kelgusi maqsadoariga erishishlarida omadlar tiladi. Shundan so'ng maktabni oltin va kumush medallari bilan yakunlagan o'quvchilarga mas'ul rahbarlar ishtirokida medallar topshirildi va kitoblar sovg'a qilindi.

Uchrashuv davomida shahar hokimi bitiruvchilar bilan ochiq muloqotda suhbatlashdi. Bitiruvchilar o'z fikr va mulohazalarini bildirishdi. Tantanali tadbirda so'zga chiqqanlar yoshlarga oid davlat siyosati asosida navqiron avlodning zamonaviy bilim olishi, sport va boshqa yo'nalishlarda iste'dodini namoyon etishi, jamiyatda munosib o'rin topishi yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning samaralari haqida to'xtalib o'tdilar.

Ma'lumot uchun: joriy o'quv yilida shahrimizdagi maktablarni jami 84 nafar, shundan 78 nafar bitiruvchi oltin medal bilan, yana 6 nafarlari esa kumush medal bilan bitirdi.

2022-06-22 14:55:36